

Date: 11thJune-2025

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI UCHUN O‘QISH VA ONA TILI
DARSLARIDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNI QO‘LLASH
SAVODXONLIGINI OSHIRISH ASPEKTLARI.**

Ibodova Khosiyat Amin kizi

Osiyo Xalqaro Universiteti “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang‘ich ta’lim)” mutaxassisligi 2-bosqich magistri

Annotatsiya: mazkur ishda boshlang‘ich sinfda o‘qish va ona tili fanlari bo‘yicha dars jarayonlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning samarali jihatlari yoritilgan. Ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtirish va darslarni jonlantirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Аннотация: в данной работе освещены эффективные аспекты использования инновационных технологий на уроках чтения и родного языка в начальных классах. Представлены рекомендации по повышению качества образования, активизации мыслительной деятельности учащихся и оживлению учебного процесса.

Abstract: this paper highlights the effective aspects of using innovative technologies in reading and native language lessons in primary school. Recommendations are given to improve the quality of education, enhance students’ thinking abilities, and make lessons more engaging.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ta’lim jarayoni – bu nafaqat bilim berish, balki ularni o‘ylash, tushunish, muloqot qilish va ifoda etish ko‘nikmalarini shakllantirish bosqichidir. Ayniqsa, o‘qish va ona tili darslari ularning savodxonlik darajasini belgilovchi asosiy fanlar bo‘lib, bu jarayonda innovatsion texnologiyalarni joriy etish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Masalan, interaktiv doskalar, multimediali taqdimotlar, ta’limiy videolar, ovozli matnlar, onlayn o‘yinlar va virtual mashqlar orqali o‘quvchilarning e’tibori ko‘proq jalb qilinadi. Ular matnni faqat o‘qibgina qolmay, uni tinglaydi, tahlil qiladi va vizual tarzda tasavvur qilishi osonlashadi. Bu esa, o‘z navbatida, savodxonlikni chuqurroq shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, innovatsion yondashuvlar bolalarning tafakkurini faollashtiradi. Masalan, matnga doir savollarga javob topish, so‘z birikmalarini to‘g‘ri tuzish, interaktiv topshiriqlarda qatnashish orqali o‘quvchilar mustaqil fikrlashga o‘rganadilar. Darslarda o‘yin va texnologiyalarning uyg‘unlashuvi esa o‘quvchilarda tabiy ishtiyoqni uyg‘otadi, darsga bo‘lgan qiziqishni orttiradi va bilimni mustahkamlaydi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari shuningdek o‘qituvchiga ham yordam beradi – darsni individual yoki guruhli shaklda olib borish, darajaga mos topshiriqlar berish, o‘quvchilar faoliyatini tez va aniq baholash imkonini yaratadi. Demak, innovatsion vositalar nafaqat darsni boyitadi, balki o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi samarali muloqotni ham kuchaytiradi. Misol uchun, interaktiv o‘yinlar orqali harflarni o‘rganish, matnni tovushli o‘qish orqali eshitish qobiliyatini rivojlantirish yoki QR-kodli topshiriqlar

Date: 11thJune-2025

orqali mustaqil ishlarni bajartirish o'quvchilarda til o'rganishga nisbatan qiziqishni oshiradi.

Innovatsion vositalar o'quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Masalan, ona tili darslarida animatsion video darslar orqali gap tuzilishi, so'z turkumlari, tinish belgilarini o'rgatish osonlashadi. O'qish darslarida esa matnga asoslangan viktorinalar yoki onlayn savol-javob platformalari orqali o'quvchilarning matnni tushunish darajasini aniqlash mumkin. Masalan, You tube platformasidagi "Bek va Lola" kanalini oladigan bo'lsak, u kanalda aynan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun kerakli, qiziqarli va tarbiyalovchi xusisiyatga ega kontentlar mavjud.

Bunday metodlar o'qituvchining ham vaqtini tejaydi, ham darsni zamonaviy va dinamik holga keltiradi. Bundan tashqari, har bir o'quvchining bilim darajasiga qarab individual yondashuvni ham amalga oshirish imkonini beradi.

Bu sferada yanayam yaxshi natijalarga erishish maqsadida bir nechta takliflar kiritish mumkin. Masalan:

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining raqamli savodxonligini oshirish bo'yicha maxsus malaka oshirish kurslari yo'lga qo'yilishi, barcha pedagogllarning zamon bilan hamnafas holda ketishiga, turli xildagi AKT vositalarini qiyinchiliksiz boshqara olishiga, darslarni noodatiy tarzda, faol va xalqaro darajada olib borilishiga olib keladi. Albatta bu uchun esa har bir umumta'lim maktabi o'quvchilar uchun zamonaviy, standarslarga to'liq mos keluvchi texnik vositalar bilan ta'minlanishi zarur, shundagina ko'zlangan natijalarga erishish mumkin. O'qish va ona tili fanlari uchun maxsus tayyorlangan interaktiv resurslar va o'yinli ilovalar yaratishda esa boshqa tillardan tarjima qilingan resurslarni ko'paytirish zarur. Chunki, bu xalqaro miqyosida, masofadan turib boshqa millatlar urf-odatlari, tarixi, ijtimoiy hayotini kuzatish imkonini beradi.

Innovatsion texnologiyalar yordamida darslarni qiziqarli, tushunarli va samarali o'tkazish mumkin. Boshlang'ich sinfda o'qish va ona tili fanlarida bu vositalarni to'g'ri qo'llash orqali o'quvchilarda tilga nisbatan muhabbat uyg'otish, ularning fikrlash va nutq faoliyatini rivojlantirish mumkin. Zamonaviy o'qituvchining eng muhim vazifasi – texnologiyani o'rgatuvchi emas, balki undan o'rgatish vositasi sifatida foydalanadigan mutaxassis bo'lishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. O'RQ-637-sod 23.09.2020.
– T.: 2020. – 75 b. //https://lex.uz/docs/5013007
2. Abduqodirov A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste'dod, 2008. – 180
3. Avliyoqulov N.H. Zamonaviy o'kitish texnologiyalari. – T., 2001. – 69 b
4. Alimjanova, G. (2022). "Innovative Methods in Primary Education: Practical Application of Digital Tools."
5. Sayidahmedov N. – Ta'lim texnologiyalari nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2018.
6. Tolipov O., Ro'ziyeva D. -Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat Toshkent "Innovatsiya-Ziyo" 2019 -B-28

Date: 11thJune-2025

- 7.Qurmanova Q.E. Ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanish "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - Issue 5 / 2020-B-152
- 8.Omonov H.T.,Xattabov M.B.-Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat Toshkent «Iqtisod-Moliya»2016 -B-47